# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI OLOT TUMANI HOKIMINING QARORI

Buxoro viloyati, Olot tumani, Olot ko’chasi, 73-uy. Tel: (365) 34-22-114, faks: (365) 34-22-539

2022 - yil 7 - dekabr 408-2-31-Q/22 Olot tuman hokimligi

## Olot tumanida tabiiy pichanzorlar va yaylovlardan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 12, 44-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta’minlash va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 689-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1.Tuman hududida pichan o‘rish, tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdorlari 1- ilovaga;

- chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Sattorov), qishloq xo‘jaligi bo‘limi (L.Umarov), Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi (M.Egamov) tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qonunchilik talablari asosida amalga oshirilishini ta’minlasin.

3.Ushbu qaror rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Sattorov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **N. Nematova**

Olot tuman hokimining
2022 yil 7 dekabrdagi
408-2-31-Q/22-son qaroriga
1-ilova

# Tuman hududida pichan o‘rish, tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishningme’yorlari, muddatlari va ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdorlari

| T/R | Chorva mol turi | O‘lchov birligi (bosh) | O‘tlatishning me’yorlari (talab etiladigan maydon, ga) | Muddati | Ruxsatnoma berilganligi uchun undiriladigan to‘lov miqdori (bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib) % da |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | 6 oydan katta qo‘ylar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,1 % |
| **2** | 6 oygacha bo‘lgan yosh qo‘zilar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,1 % |
| **3** | 6 oydan katta echkilar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,1 % |
| **4** | 6 oygacha bo‘lgan uloqlar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,1 % |
| **5** | Katta yoshdagi qoramollar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,3 % |
| **6** | Ikki yoshgacha bo‘lgan buzoqlar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,2 % |
| **7** | Katta yoshdagi otlar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,3 % |
| **8** | Ikki yoshgacha bo‘lgan toylar | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,2 % |
| **9** | Katta yoshdagi eshaklar (uy hayvoni) | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,3 % |
| **10** | Ikki yoshgacha bo‘lgan xo‘tiklar (uy hayvoni) | bosh | 1 ga | 1 yil | 0,2 % |

Olot tuman hokimining
2022 yil 7 dekabrdagi
408-2-31-Q/22-son qaroriga
2-ilova

# Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari

| **Foydalanish muddati** | **Pichan o‘rish miqdori hajmlari (kg, tonna, kubametr)** | **Ajratiladigan maydon, ga** | **Ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdori** |
|---|---|---|---|
| Bir yil (mavsum davrida) | kg | 1 ga | Bazaviy hisoblash miqdorining 50 % miqdorida |